

# **O‘g‘il bolalarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan oilaviy hayotga tayyorlashda mustakil fikr va mustahkam e’tiqod – davr talabi**

Xalqaro Nordic universiteti

Pedagogika kafedrasи katta o‘qituvchisi Islamova F.Sh.

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada o‘g‘il bolalarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida mustaqil fikrlash va mustahkam e’tiqodning ahamiyati tahlil qilinadi. Jamiyat rivojlanishida oilaning o‘rni, yosh avlodning tarbiyasi va ongini shakllantirishda ota-onalar, ta’lim muassasalari hamda mahalla instituti hamkorligining zarurligi yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning o‘z shaxsiy qarashlariga ega bo‘lishi, mustahkam ma’naviy qadriyatlar asosida oila qurishga tayyorlanishi milliy va zamonaviy yondashuvlar asosida izohlanadi. Maqolada mustaqil fikrlovchi va e’tiqodi mustahkam yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila tarbiyasi, mustaqil fikrlash, mustahkam e’tiqod, ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik, jamiyat va oila, yoshlar tarbiyasi.

## **Annotation**

This article analyzes the significance of independent thinking and strong faith in preparing boys for family life from a spiritual and educational perspective. It highlights the role of the family in societal development and the necessity of collaboration between parents, educational institutions, and community organizations in shaping the mindset and upbringing of the younger generation. Additionally, the article explains the importance of young individuals forming their own perspectives and being prepared to build a family based on strong moral values, considering both national and modern approaches. Practical recommendations for fostering independent and morally grounded youth are also presented.

**Keywords:** family upbringing, independent thinking, strong faith, spiritual and educational preparation, society and family, youth education.

O‘zbek xalqining turmush tarzi tarixi oila mustahkamligi, uning har tomonlama ravnaqi masalasining yuqori pog‘onada bo‘lganligidan darak beradi. Bu o‘zbek millatiga xos etnopedagogik va etnopsixologik hodisa va an’ana bo‘lib, o‘z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda ham muhim o‘rinni

egallaydi. Muqaddas Quronni Karim va Hadislarda, Imom Buxoriy, Shayx Najmiddin Kubro, Al-Xakim at-Termiziyning o‘gitlarida, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Imom Fazzoliy, Rabg‘uziy, Samarqandiy, Maxmud az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi Sharq mutafakkirlari qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy meroslarida oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Zero, oila jipsligining barqarorligi, ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksakligi, moddiy farovonlik, kelajak avlodning har tomonlama rivojlanishi va sog‘lomligi, jamiyat taraqqiyoti, tinch-totuv hayot va farovonlik hamda mustaqil fikr va mustahkam e’tiqod egasini tarbiyalash oila bilan bevosita bog‘liqdir. Oilada o‘g‘il bolalarni ma’naviy ma’rifiy ishlar asosida oilaviy hayotga tayyorlashda ijtimoiy-pedagogik hodisani alohida eslatish zarurki, sobiq sho‘rolar tuzumi mafkurasi hukmronlik qilgan davr hayot va turmushning asosiy bug‘ini - oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash va uning taqdiriga panja orasidan qaraldi, unga oid milliy qadriyatlar va an’analarga umuman e’tibor berilmadi. Shu pedagogik bo‘shliq o‘zbek xalqining etnopedagogik va etnopsixologik boyliklaridan qisman mahrum qildi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov istiqlolning birinchi kunlaridanoq Vatan tushunchasi, oila va jamiyat, milliy mafkura tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekanligiga diqqatni qaratib, shunday ta’lim berdilar: «Yurtimizda har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. Shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog‘liqdir. Oilaning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, mahalla, tuman, shahar va viloyatlar, va nihoyat, mamlakat oilalardan tashkil topadi. Demak, oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlashning jamiyatdagi muhim o‘rni ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyati, qadr-qimmatini anglash, mustaqil fikrlay olish

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “Fidokor” gazetasi muxbir savollariga javoblar.-T.: O‘zbekiston, 2000. – 40 b.

hamda mustahkam e’tiqodga ega bishish va shu ijtimoiy-pedagogik vazifalarni amalga oshirish bugungi dolzarb masaladir.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida avvalgi “Oila” bobi - “Oila, bolalar va yoshlar” deya qayta nomlanib, qo‘sishimcha ravishda yoshlarga oid alohida modda kiritildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 76-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”<sup>2</sup>, - deyilgan. Yuqorida zikr qilingan birinchi Prezidentimiz ta’limoti shu moddada o‘z ifodasini topganki, bu oilaga bo‘lgan milliy-ma’naviy, huquqiy munosabatdir.

Oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlashda oila - mafkuraviy tarbiya eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash - jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi»<sup>3</sup> , - degan purma’no va teran fikr ilgari surilgan. Bu o‘rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov oila va unga tayyorlash to‘g‘risidagi muqaddas kitoblarimiz, mumtoz allomayu fuzalolarimiz, donishmand qomusiy olimlarimiz, mutafakkirlarimizning ilmiy-nazariy ta’limotlariga, amaliy tajribalariga ishora qilmoqda.

Oilada o‘g‘il bolalarni milliy an’analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash va uning taqdiri haqida qayg‘urish, g‘amxo‘rlik qilish o‘zbek xalqining azaliy, muborak milliy qadriyati va an’anasidir. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida ham ta’lim jarayonini, ham tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish vazifasi ko‘rsatib berilgan <sup>4</sup>. Bu yerda yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nazarda tutiladi. Zero, oila xalqnnng milliy qadriyatlari va

---

<sup>2</sup> Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.

<sup>3</sup> Milliy istoqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2001 .- 77 b.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» qonuni. 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” matbaa-nashriyot konserni, 1997. – 29 b.

an'analarini davr va zamon talablari asosida rivojlantirib, avloddan-avlodga yetkazadigan, bu borada avlodlar aloqasining uzviyligini taminlaydigan, shuningdek, muayyan jamiyat, hayot va turmush talablari hamda shart-sharoitlariga mos mustaqil fikrga ega, e'tiqodi mustahkam barkamol insonni tarbiyalaydigan ijtimoiy ta'lim-tarbiya institutidir.

Shu institut faoliyati faolligini oshirish va jadallashtirish, bu borada tegishli zaruriy shart-sharoitlar yaratish maqsadida hukumatimiz, shaxsan birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan «Oila», «Ayollar», «Sog‘lom avlod», «Ona va bola», “Sihat-salomatlik”, “Xomiylar va shifokorlar”, “Ijtimoiy himoya”, “Yoshlar”, “Mustahkam oila” kabi tarixiy yil-sanalari e’lon qilindi va shu munosabat bilan maxsus Davlat dasturlari ishlab chiqildi. Ular oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya yo‘riqnomasi sifatida amalga oshirildi.

Biroq «Hozirgi davr - dunyoda qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo‘lib borayotgan davr»<sup>5</sup> bo‘lib, «O‘rta asr xalifaligini qayta o‘rnatish g‘oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g‘oyaviy jihatdan ta’milanayotgan aqidaparast mafkuralar bugungi kunda mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo‘lib turibdi»<sup>6</sup>. Shu o‘rinda yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash vazifasi ko‘ndalang qo‘yilishi maqsadga muvofiq ekanini alohida ta’kidlash lozim, o‘zbek milliy an'analar milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda, kelajagi buyuk davlatni barpo etishda, bu boradagi zaruriy ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘naltirish, shuningdek, oilada o‘g‘il bolalarni milliy an'analar asosida oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilada o‘g‘il bolalarni milliy an'analar asosida oilaviy hayotga tayyorlash tasodifyi faoliyat bo‘lmay, balki ilmiy asosga va mustahkam amaliyotga tayanadi. Bu

<sup>5</sup> Sharq yulduzları: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar)/Ma’sul muharrir: M.M.Xayrullaev. – T.: A.Kodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999. – 66 b.

<sup>6</sup> Sharq yulduzları: (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar, adiblar)/Ma’sul muharrir: M.M.Xayrullaev. – T.: A.Kodiri nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999. – 22 b.

muammoga doir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha birmuncha ilmiytadqiqot ishlari olib borilgan, ammo o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi nazardan chetda qolgan. Olib borilgan tadqiqot ishlari, dastur va o‘quv qo‘llanmalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning o‘ziga xos yo‘llari, metod va usullari borasida ma’lum tajribalar o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashda birmuncha yordam beradi. Chunki o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash uzlusiz bo‘lib, uni izchil davom ettirish va ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish zamon talabidir. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar»da milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish sohalari va yo‘nalishlarida ularni g‘oyaviy tarbiyalashda ko‘zda tutilgan maqsad oila va g‘oyaviy tarbiya muammolariga katta e’tibor berilganligi, bunda maktabgacha, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasbhunar ta’limi muassasalarida mafkuraviy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga joriy etish ko‘rsatib o‘tilgan. Ana shu ko‘rsatmalarga asosan o‘g‘il bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida ham mafkuraviy tarbiya yotishi zarurligi belgilab qo‘yilgan. Asrimiz boshida Abdurauf Fitrat xalqimizning oilaviy an’ana va urf-odatlarini, shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ta’limotlarini o‘rganish asosida «Oilani boshqarish tartiblari» risolasini yaratdiki, bu asar hozirgi davrda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fitrat shunday yozadi: «Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib, izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib, xorlikka tushishi, faqirlilik kiyimini kiyib, baxtsizlik yukini tortib, e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq»<sup>7</sup>.

O‘g‘il bolalarni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash jamiyat barqarorligi va mustahkam oilaviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustahkam e’tiqod asosida hayotga tayyorlash ularni kelajakda mas’uliyatli ota, sodiq turmush o‘rtoq va jamiyatning faol a’zosiga aylanishini ta’minlaydi. Bunda

---

<sup>7</sup> Fitrat, Abdurauf. Oila. – T.: Ma’naviyat, 1998. – 61 b.

oilaviy tarbiya, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligining samarali yo‘lga qo‘yilishi, o‘g‘il bolalarga milliy va diniy qadriyatlar asosida oila qurish va unga mas’uliyat bilan yondashish tushunchalarini singdirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish, yoshlar orasida oila, ota-onalik va turmush mas’uliyati haqida kitoblar, maqolalar va ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumotlar berish, yoshlarni hayotga tayyorlash maqsadida baxtli va mustahkam oilalarning tajribalarini ulashish uchun uchrashuv va seminarlar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Otajonova, O. A., Islamova, F. S., Fayazova, F. S., & Nematov, B. S. (2022). The Influence Of Parental Relationships On Adolescent Gender Identity. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2393-2399.
2. Islamova, F. (2024). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЖАМИЯТДА ЎФИЛ БОЛАЛАРНИ ҲУНАРМАНДЧИЛИК АСОСИДА МУСТАҚИЛ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ. *Nordic\_Press*, 3(0003).
3. Islamova, F. (2024). БАДИЙ ТАЪЛИМДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИНИ ТАЙЁРЛАШДА КАСБИЙ ЭТИКА ВА ПРОФЕССИОНАЛ МАСЪУЛИЯТ ҲИССИНИ ТАРБИЯЛАШ МУАММОЛАРИ. *Nordic\_Press*, 3(0003).
4. Vokhidova, N. K., Khalikova, Z. M., Islamova, F. S., & Abdulkhayeva, M. B. (2024). Organization Of The Educational Process In Primary Education With The Participation Of Artificial Intelligence. *Educational Administration: Theory and Practice*, 30(4), 1906-1909.
5. Sh, I. F., & Vaniyan, S. B. (2021). THE ROLE OF PARENTS IN FORMING SPIRITUAL EDUCATION ON THE BASIS OF CREATIVE APPROACHES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(12), 162-165.